

HUVAYDO RUBOIYLARIDA IJODIY USUL MASALASI

Mannopov Islombek Sultonaliyevich

Filologiya fanlari doktori, dotsent

Nabijonova Durdonaxon Abdullajon qizi

Farg‘ona davlat universiteti

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xojanazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydoning badiiy mahorati tahlil qilinadi. Shuningdek, ruboiy janrining nazariy xususiyatlari — tuzilishi, qofiyalanish tizimi va vazni haqida umumiy ma‘lumot berilib, Huvaydo ruboiylari misolida ularning amaliy ifodasi yoritiladi. Maqolada ruboiylarda nido san‘atining faol qo‘llanishi hamda solik obrazining shakllanishida malomatiylikka xos jihatlar muhim o‘rin tutishi ko‘rsatib beriladi. Nido san‘ati va malomatiy kechinmalar Huvaydoning o‘ziga xos ijodiy uslubini belgilaydi.

Annotation: This article analyzes the artistic mastery of Khojanazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydo. It also provides general information about the theoretical features of the rubai genre — its structure, rhyme scheme, and meter — and illustrates their practical expression through examples from Huvaydo’s rubai. The study highlights the active use of the exclamatory (nido) device in the poems, as well as the significant role of Malamati characteristics in shaping the image of the salik (spiritual seeker). The use of exclamatory expression and Malamati experiences defines Huvaydo’s distinctive creative style.

Kalit so‘zlar: Huvaydo, ruboiy, solik obrazi, tasavvuf, mumtoz adabiyot, devon, qofiyalanish tizimi, hazaj bahr, xosiy ruboiy, tarona ruboiy, badiiy mahorat, nido san‘ati, ilohiy ishq, dunyo foniyli, lirik qahramon, afsus motivi, malomatiy kechinamalar.

Keywords: Huvaydo, rubai (quatrain), salik (spiritual seeker) image, Sufism, classical literature, divan, rhyme scheme, hazaj meter, khasiy rubai, tarona rubai, artistic mastery, exclamatory (nida) device, divine love, transience of the world, lyrical hero, motif of regret, malomatiy experiences.

Kirish: O‘zbek adabiyoti tarixining yirik namoyondalaridan biri, tasavvuf ta‘limotining mashhur vakili Xojanazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydo o‘z davrining ma‘naviy hayotida yetakchi o‘rin egallaydi. U XVII-XVIII-asrlar o‘zbek adabiyoti rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan mutassavif shoir sifatida tarix zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldirgan. Lekin ulug‘ siymoning tarjimai holiga doir ma‘lumotlar ham juda oz va turli munozaralar predmeti bo‘lmoqda. Xolbuki, Huvaydo “Rohati dil” dostonining “Sababi nazmi kitob” bobida o‘zining nasl-nasabi, tug‘ilgan joyi haqida quyidagi ma‘lumotlarni beradi:

*Kaminaning oti Xojanazardur,
Atosining oti G'oyibnazardur.
Nasabda O'shiyu mavludi Chimyon
G'aribu xoksoru dil parishon.*

Xojanazar Huvaydo devoniga kiritilgan tasavvufiy she'riyatning deyarli barcha janrlariga oid — g'azal, mustazod, muxammas, ruboiy, chiston kabi nazm namunalarining mumtoz ustasi sifatida namoyon bo'ladi. Garchi Xo'janazar Huvaydo hayotlik chog'ida o'z devonini tuzmagan bo'lsa-da, bu savobli ish keyinchalik uning avlodlari tomonidan amalga oshirilgan. Xususan, shoirning chevarasi Hoji Salohiddin Soqib hamda Mirza Hakim ibn Marg'iloniy tomonidan tartib berilgan Huvaydo devoni boshqa tuzilgan devonlarga qaraganda ancha to'liq va puxta hisoblanadi. Mazkur devonga shoirning 351 ta g'azali, 28 ta ruboiysi, 41 ta to'rtligi, 3 ta muxammasi, 1 ta musaddasi va 3 ta masnaviysi jamlangan. Shu o'rinda devonda jamlangan she'riy janrlar orasida ruboiylar alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki ruboiy janri o'zining ixchamligi, teran falsafiy mazmuni hamda tasavvufiy g'oyalarni qisqa, ammo ta'sirchan shaklda ifodalash imkoniyati bilan ajralib turadi. Xojanazar Huvaydo ham ushbu janr imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan holda, o'zining ilohiy ishq, nafsni poklash, dunyo foniyligi kabi mavzularini chuqur badiiy talqin etadi. Huvaydo ijodini o'rganishda ruboiy janriga nazariy jihatdan batafsil yoritish maqsadga muvofiqdir.

Ruboiy (arabcha "to'rtlik" ma'nosini bildiradi) Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan she'riy janrlardan biri hisoblanadi. U ikki baytdan, ya'ni to'rt misradan iborat bo'lib, odatda a-a-b-a yoki a-a-a-a tarzida qofiyalanadi. Ruboiy o'ziga xos vazn tizimiga ega bo'lib, asosan hazaj bahrining axrab va axram turlarida yaratiladi. Ruboiyning ikki asosiy ko'rinishi mavjud: xosiy ruboiy (a-a-b-a) va tarona ruboiy (a-a-a-a). Ruboiy janri dastlab fors-tojik adabiyotida shakllangan bo'lib, uning ilk namunalarini Abu Abdulloh Rudakiy ijodida uchratish mumkin.

Yuqoridagi nazariy ma'lumotlardan kelib chiqib, Huvaydo ruboiylarining qofiyalanish tizimini tahlil qilish muhimdir.

*Xoliqo, sandin tilarman ko'p madad,
Ham tirikda, jon chiqarda yo ahad.
San agar holimga homid bo'lmasang,
Ozg'urur yo'limdan mani shaytoni bad.*

Ushbu ruboiyda birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralar o'zaro qofiyadosh bo'lib, uchinchi misra ulardan farq qiladi. Bu esa uning xosiy ruboiy ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga madad, ahad va bad so'zlari ohangdoshlikni hosil qilgan. Ruboiy munojot mazmuniga ega: lirik qahramon (solik) bevosita Allohga murojaat qiladi — "*Xoliqo, sandin tilarman ko'p madad*". Bu yerda banda o'z ojizligini tan olib, har lahzada, hatto "jon,

chiqarda” ham ilohiy yordamga muhtoj ekanini bildiradi. Bu — tasavvufdagi to‘liq tavakkul va bandalik holatidir.

Shu bilan birga, ruboiyda nido san’ati yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Xoliqo”, “yo ahad” kabi murojaat shakllari orqali shoir Allohni turli sifatlari bilan chaqiradi. Bu nidolar matnga kuchli hissiylik, iltijo va samimiyat bag‘ishlab, solik qalbidagi iztirobni yanada chuqurlashtiradi.

Asarning markazida esa solik kechinmasi turadi. Solik — Haq yo‘liga kirgan ruhiy yo‘lovchi sifatida doimiy ichki kurashda: bir tomonda Allohga yaqinlashish istagi, ikkinchi tomonda esa nafs va shayton xavfi. Ruboiydagi:

*“San agar holimga homid bo‘lmasang,
Ozg‘urur yo‘limdan mani shaytoni bad”*

misralari aynan shu ruhiy ziddiyatni ochib beradi. Ya’ni, agar Allohning madadi bo‘lmasa, solik yo‘ldan ozishi, shayton vasvasasiga berilishi mumkin. Bu tasavvufdagi “nafs bilan mujohada” g‘oyasining ifodasidir.

Shoirning “Devon”iga 28 ta ruboiy kiritilgan va ularni shakily tuzilishiga ko‘ra shartli ravishda quyidagi turkum guruhlarga ajratish mumkin. Jumladan, “Xoliqo” murojaati bilan boshlanuvchi ruboiylar 15 ta, “afsus” modal so‘zi bilan boshlanuvchi ruboiylar 8 ta, “Ey Xojanazar” undalmasi bilan boshlanuvchi ruboiylar esa 5 tani tashkil etadi.

Odatda ruboiy janrida turli xil mavzular — ishq, raqib, axloqiy-didaktik yoki ijtimoiy masalalar aks etishi mumkin. Biroq biz tahlil qilayotgan Huvaydo ruboiylarida ko‘proq hayotning shafqatsizligi, lirik qahramonning pushaymon va afsuslari hamda bu dunyodagi barcha narsa, hatto olimlar, donishmandlar, payg‘ambarlar va hukmdorlarning ham bir kun kelib bu foni dunyoni tark etishi, ya’ni dunyoning bevafo va o‘tkinchi ekanligi g‘oyasi yetakchi o‘rinda turadi. Quyida keltirilgan ruboiy ham shu fikrni tasdiqlaydi.

*Afsus, yuz afsuski, hamnafaslar o‘tti,
Shohid-u jahon, kamtari xaslar o‘tti.
Biz ko‘ngli o‘luk, baxtiqarolar qolduk,
Tirguzguvchi dil lyso nafaslar o‘tti.*

Bundan tashqari, ushbu ruboiyda malomatiylik an’anasi mavjud. Malomatiylik tasavvufdagi yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u nafsni malomat qilish, riyodan uzoqlashish va faqat Alloh roziligini ko‘zlash g‘oyasiga asoslanadi. Ushbu ta’limotda insonning ichki pokligi tashqi obro‘dan ustun qo‘yiladi. Huvaydo ijodida ham malomatiy ruh sezilib, afsus va o‘zini tanqid qilish motivlari orqali namoyon bo‘ladi.

Xulosa: Huvaydo ruboiylari tasavvufiy g‘oyalar va badiiy mahorat uyg‘unlashgan ijod namunasi bo‘lib, ularda solik kechinmalari, dunyoning foniyligi hamda ilohiy ishq mavzulari yetakchi o‘rinda turadi. Shoir ijodida nido san’ati faol qo‘llanilib, ifodaning ta’sirchanligini oshiradi. Shuningdek, malomatiylikka xos ruh — o‘zini tanqid qilish va afsus motivlari orqali solik obrazining ichki kechinmalari chuqur ochib berilgan. Huvaydo

ruboiylarida nido san'ati hamda malomatiylarga xos ruhiy kechinmalar ijodiy usul darajasiga ko'tarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rўzmatzoda Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг ХVIIХVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожигаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020.
2. *Xojanazar Huvaydo (2005). Devon (Nashrga tayyorlovchilar: I.Abdulloh, Q.Ro 'zmatzoda). – Toshkent: "Yangi asr avlodi".*
3. Нусратулло Атаулло ўғли Жумахўжа. Хувайдо тасаввуфий шеърларида фалсафий-бадий талқин. // –Тошкент: Шарқ юлдузи, 1998. № 4.
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/xojanazar-huvaydo-gazallarruboiylar.html>
5. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtozsheriyati/huvaydo/?ysclid=m47h09vacc154536898>

6. ANKABAYEVA MOHIRA MURADOVNA XOJAMNAZAR HUVAYDO MEROSINING TASAVVUFIY TALQINI 10.00.02 – O'zbek adabiyoti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan DISSERTATSIYA